

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

MIRSAIDOVA ZUXRA SHUXRAT QIZI

**TURLI SELEKSIYADAGI GOLSH TIN ZOTLI SIGIRLAR SUT
MAHSULDORLIGINING KONSTITUTSIYA TIPIGA BOG‘LIQLIGI**

06.02.03-Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferat mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Abstract of the dissertation of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Mirsaidova Zuxra Shuxrat qizi

Turli seleksiyadagi golshtin zotli sigirlar sut mahsuldorligining konstitutsiya tipiga bog‘liqligi.....5

Мирсаидова Зухра Шухрат кизи

Молочная продуктивность коров голштинской породы разной селекции в зависимости от конституционального типа.....21

Mirsaidova Zuxra Shuxrat qizi

The dependence of milk productivity of Holstein cows of different selection on the constitutional type.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published work.....45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

MIRSAIDOVA ZUXRA SHUXRAT QIZI

**TURLI SELEKSIYADAGI GOLSH TIN ZOTLI SIGIRLAR SUT
MAHSULDORLIGINING KONSTITUTSIYA TIPIGA BOG‘LIQLIGI**

06.02.03-Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish
texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Тошкент – 2025

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024. PhD/Qx1228 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) hamda Axborot milliy agentligida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xujamov Jurabek Naimovich**
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Madraximov Shodlik Nazarovich**
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent

Klichov Zafar Safarovich
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori,
katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: **Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «28» 07 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel: (99871) 260-48-00; faks: (99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz. Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 2-qavat majlislar zali)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (553174-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi 1-qavat Tel: (99871) 260-50-43)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12» 07 kuni tarqatildi.
(2025-yil «10» 06 dagi №29 raqamli reyestr bayonnomasi)



Sh.R.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
q.x.f.d., professor

Sh.A.Abdurasulov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
kotibi, v.f.d., dotsent

Q.J.Shakirov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, q-x.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida 1000 dan ortiq qoramol zotlari urchitilib irsiy imkoniyatlari takomillashtirilmoqda. Hozirga kelib dunyo miqyosida yiliga 928 mln tonnadan ortiq sut ishlab chiqarilmoqda. Bu borada sudor podalarni takomillashtirish, ulardan iqtisodiy jihatdan yuqori natijalar olish bilan bir qatorda qoramolchilik sohasini rivojlantirishda Gollandiya, Germaniya, AQSH, Kanada, Daniya, Estoniya va Polsha seleksiyalariga mansub qoramollardan keng foydalanilmoqda. «...chorvachilikni barqaror rivojlantirish oziq-ovqat xavfsizligini saqlash va unga bo‘lgan ehtiyojini qondirish muhim ahamiyat kasb etadi»¹. Sohoni barqaror rivojlantirish maqsadida sigirlarning sut mahsuldorligi, pushtdorlik xususiyatlarini yanada takomillashtirilgan holda ularni tashqi ko‘rinishi va konstitutsiya tiplari bo‘yicha ishlab chiqarish sharoiti zamonaviy texnologiyalar talabiga mos keladigan sigirlarni yetishtirish va ularga to‘la qiymatli oziqlantirish va asrash sharoitlarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Dunyo davlatlarida sut va go‘sh tashqi ko‘rinishidagi qoramol zotlarga alohida e‘tibor qaratilib ularning mahsuldorlik, mahsuldorlik xususiyatlarini yanada takomillashtirish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa naslli buqalarni tanlash va ulardan urug‘ olish ishlarini tashkil etish orqali sersut podalar guruhini yaratish borasida bir qator tadqiqotlar o‘tkazilib kelinmoqda. Asosiy maqsad aholini sifatli sut, go‘sh kabi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishdir. Bu borada sut qoramolchiligida nozik-zich, mustahkam konstitutsiya tiplarini takomillashtirib borish, sutbop podalar guruhini tashkil etish, qoramollar ichida identifikatsiyalash ishlarini reja asosida samarali olib borish orqali yangi zot va zot tiplarini shakllantirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda urchitilayotgan chorva mollarni mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida, qoramollarning har xil konstitutsiya tiplarini (nozik, zich, mustahkam, qo‘pol, bo‘sh o‘rnatilgan) talablar asosida tanlash muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda respublikamizda yiliga 12.443.841 tonnadan ortiq sut ishlab chiqarilmoqda. Respublikamiz chorvachiligida qoramolchilik yetakchi o‘rinni egallab, sut yo‘nalishidagi qoramol zotlaridan sut mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga bo‘lgan talab yildan yilga ortib bormoqda. «...ichki iste‘mol bozorida go‘sh, sut, tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni barqaror ta‘minlash»². Bugungi kunda xalqimiz dasturxoniga sut va sut mahsulotlari turlicha ko‘rinishda ommalashib bormoqda, shu sabab sutchilikka ixtisoslashgan fermalarda urchitilishi uchun rejali hisoblangan qoramol zotlaridan golshtin, qora-ola, qizil cho‘l, bushuyev, shvits va simmental kabi mahsuldorlik, pushtdorlik xususiyatlari yuqori, iste‘mol qilgan ozuqasini sut bilan qoplash xususiyatlarini yuqori zotlarni o‘rganish va baholash borasida tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29 yanvardagi PQ-4576-son

¹ <http://www.fao.org/docrep/018/i3300e.pdf>.

² Mirziyoyev Sh.M. “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan yanada qo‘llab quvvatlashga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5017 sonli qarori. Toshkent 2021-yil 3-martdagi.

«Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 8 fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni hamda 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni va 2023-yil 24-avgustdagi PQ-285-son «Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlarida shuningdek rivojlantirish qo‘mitasi tomonidan ushbu faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jalik, veterinariya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavjud qoramol zotlarining nasldorlik va mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirib borishda golshtin zotli qoramollarning salohiyatidan to‘liq foydalanib yanada takomillashtirish borasida I.F.Gorlov, S.Lopez, Vanbelle M, El-Tarabany, L.Koncar, L.H.Baumgard, N.Soriani, I.M.Dunin, N.I.Strekozov, D.V.Karlikov, P.Proxorenko, F.F.Eysnerlar kabi xorijiy mualliflar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekistonda Sh.A.Akmalxonov, E.Yu.Karchevskiy, U.N.Nosirov, M.E.Ashirov, A.K.Kaxarov, B.O.Abdalniyazov, M.X.Dosmuxamedova, Q.J.Shakirov, J.N.Xujamov, N.R.Ro‘ziboyev kabi tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, golshtin zoti sut mahsuldorligi bo‘yicha qora-ola, qizil cho‘l zotlarini yaxshilovchi zot bo‘lib, turli seleksiyaga mansub golshtin zotining iqlim va ekologik sharoitga moslashishi, eksteryer va konstitutsiya xususiyatlari, mahsuldorlik va nasldorlik ko‘rsatkichlari har xil ekanligi hamda xo‘jalik uchun eng maqbul belgi va xususiyatlari takomillashtirilganligi qayd etilgan.

Bu borada golshtin sigirlarning oziqlantirish va saqlash xususiyatlarini tahliliy o‘rgangan holda takomillashtirish konstitutsiya tiplari nuqtai nazardan har xil seleksiya kesimida sigirlarning xo‘jalik foydali belgilarini o‘rganish va tahlil qilish borasidagi tadqiqotlarni o‘tkazish amaliy va ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasini ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №0194513 raqami bilan ro‘yxatga olingan “Qoramollarning mahsuldorligi va uning sifatini yaxshilash bo‘yicha genetik salohiyatidan foydalanishni samarali usullarini ishlab chiqarish” mavzusi doirasida bajarilgan (2022-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi. Samarqand viloyatining tabiiy iqlim sharoitiga mos turli davlatlar seleksiyasiga mansub golshtin zotli sigirlar konstitutsiya tiplarini tahliliy o‘rganish asosida ularni iqtisodiy jihatdan sut mahsuldorligini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tajribalardagi sigirlarni oziqlantirish va saqlash sharoitlarini aniqlash;
tajribalardagi sigirlarining eksteryer va konstitutsiya xususiyatlarini tahliliy o'rganish va baholash;

tajribalardagi sigirlar yelinining morfofunktsional xususiyatlarini aniqlash;
tajribalardagi sigirlarning sut mahsuldorligi, sog'im davrining kechish xususiyatlari va sutdorlik koeffitsiyentini aniqlash;

tajribalardagi sigirlarning yil fasllari bo'yicha klinik va gematologik ko'rsatkichlari va issiqqa chidamlilik indeksini aniqlash;

tajribalardagi sigirlarni pushtdorlik, iste'mol qilgan ozuqasini sut bilan qoplash darajasini o'rganish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti Samarqand viloyatidagi "Siyob Shavkat Orzu", "PURE MILKY PRODUCTS", "PURE MILKY OQDARYO" xususiy qoramolchilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklaridagi Gollandiya, Germaniya, Daniya seleksiyasiga mansub golshtin sigirlari xizmat qildi.

Tadqiqotning predmeti Gollandiya, Germaniya, Daniya seleksiyasiga mansub golshtin sigirlari, ularning o'sish va rivojlanishi, sut mahsuldorligi, ayrim biologik xususiyatlari, oziqlantirish va saqlash sharoitlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqotlarni bajarish davomida umum ma'lum bo'lgan zootexnikaviy usullardan (eksteryer va interyer, ozuqa sarfi, iste'mol qilgan oziqasini sut bilan qoplash, laktatsiyaning kechish xususiyatlari) foydalanildi, biologik (tajribadagi sigirlarning fiziologik, o'sish va rivojlanish hamda issiqqa chidamliligi) ko'rsatkichlari, biomertik (o'rtacha arifmetik qiymat (\bar{X}), o'rtacha arifmetik qiymatning xatosi (S_x), o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti ($C_v, \%$), ishonchlilik darajasi (td) ko'rsatkichlari) ishlov berish va iqtisodiy (tannarx, umumiy xarajat, sof foyda, rentabellik darajasi) kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Samarqand viloyatining tabiiy iqlim sharoitida turli seleksiyadagi golshtin zotli sigirlarning fasllar kesimida sut mahsuldorligining barqarorligi yoz faslining iyun oyida Gollandiya seleksiyasi, Germaniya va Daniya seleksiyasining nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tiplaridan 189,5 kg (18,3%), 107,2 kg (10,3%), 168,1 kg (14,5%), 161,9 kg (13,9%), yuqori sut mahsuldorlikka ega bo'lganligi aniqlangan.

Tajriba davomida sutdorlik koeffitsiyenti, sigirlarning seleksiyasi, zoti, yoshi, tirik vazni, konstitutsiya tipi, fiziologik holati, oziqlantirish va saqlash sharoitlariga bog'liq holda Gollandiya seleksiyasi, Germaniya va Daniya seleksiyasining nozik-zich konstitutsiya tipidan 1281,1 kg (14,7%), 1505,0 kg (17,3%) yuqori bo'lib, mustahkam konstitutsiya tipi 884,6 kg (9,32%), 1594,3 kg (16,8%) yuqori ekanligi tajriba davomida umum ma'lum bo'lgan formula asosida isbotlangan.

Tajriba guruhidagi sigirlarning yelin shakllarini baholashda asosan ikki xil kosasimon va vannasimon yelin shakllari o'rganilib, Gollandiya seleksiyasi, Germaniya va Daniya seleksiyasiga nisbatan vannasimon shaklli yelenga ega bo'lgan sigirlarni 70% vannasimon va yelin aylanasi 0,66% bo'lganida laktatsiyasining dastlabki oyida sut miqdori 115,0 kg yoki 13,3% ga oshganligi

isbotlangan.

Gollandiya, Germaniya, Daniya seleksiyalariga mansub golshtin sigirlarida tadqiqot natijalariga ko'ra Gollandiya seleksiyasidagi mustahkam konstitutsiya tipidan foydalanilsa yuqori mahsuldor podalar yaratish sur'atini oshiradi va sut mahsuldorligi 16,8-17,3% ga ko'payadi, har yili buzoq olishning samaradorligi aniqlangan.

Konstitutsiya tiplari bo'yicha sigirlarni issiqqa chidamlilik indeksi 79-88 birlikni tashkil etsa, bunday sigirlarni yuqori issiqqa chidamli, 61-75 ni tashkil etsa past issiqqa chidamli deb hisoblangan. Barcha seleksiyalararo nozik zich va mustahkam konstitutsiya tipida natijalar 74-79 birlik oralig'ida bo'lganda, Servis-davrining davomiyligi, 2,7% dan 3,1 % gacha qisqarganligi ilmiy isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Respublikamizning Samarqand viloyati sharoitida rejali hisoblangan golshtin zotini turli davlatlar seleksiyasiga mansub sut yo'nalishidagi zotlarni olib kelish va ularni tana tuzilish klassifikatsiyasiga qarab sut mahsuldorligini oshirish va pushtdorligini yaxshilashning ilmiy asoslari joriy etilgan;

Samarqand viloyati iqlim sharoitida golshtin zotli sigirlar har 100 kg tirik vazniga ishlab chiqarilgan sutdorlik koeffitsiyenti muhim bo'lib, xo'jalikda sigirlarning mahsuldorligini ozuqa bilan qoplash xususiyatini takomillashtirish asosida yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga erishildi;

"PURE MILKY OQDARYO" qoramolchilikka ixtisoslashgan tajriba xo'jaligida MILKLIN sog'ish apparatida 1388 bosh sog'in sigirlardan bir kunda 3 marta har 8 soatda sog'ish jarayoni olib borildi va bu xo'jalik uchun maqbul sog'im vaqti ekanligi asoslangan holda iqtisodiy jihatdan yuqori daromad olib kelishi asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlar oxirgi zamonaviy, innovatsion yangi uslub va ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda, laboratoriya hamda ishlab chiqarish tajribalari asosida umumqabul qilingan uslublar asosida bajarilganligi, tadqiqot ishi ilmiy natijalari hamda birlamchi hujjatlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti hamda tegishli vazirliklarining aprobat siya komissiyalari tomonidan ijobiy baholanganligi, olingan raqamli ma'lumotlar biometrik, o'zgaruvchanlik, farqlanishning aniqlanganlik darajasi tahlillaridan o'tkazilganligi, ilmiy natijalarni nufuzli yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, dissertatsiya universitetning ilmiy loyihasi asosida olinganligi, tadqiqot ishining amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ma'qullanganligi, olingan amaliy natijalarning ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilmiy ahamiyati sigirlar sut mahsuldorligi va pushtdorligining konstitutsiya tipiga bog'liq holda takomillashtirish hisobiga sog'in sigirlarning sut mahsuldorligi hamda yiliga buzoq olish ko'rsatkichlarini yaxshilashning ilmiy asoslarini ishlab chiqilganligi hamda tadqiqot natijalari asosida olingan ma'lumotlarning nazariy asoslari yaratilganligi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati turli seleksiyadagi golshtin sigirlarning o'sishi, sut mahsuldorligi, ayrim biologik xususiyatlari, oziqlantirish va saqlash

sharoitlarini yaxshilashda konstitutsiya tiplari asosiy vositalaridan biri bo'lib, respublikamiz iqlim sharoitida irsiy imkoniyatlari va xo'jalik qimmatli belgilarini to'liq yuzaga chiqarishda dastur bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Turli seleksiyadagi golshtin zotli sigirlar sut mahsuldorligining konstitutsiya tipiga bog'liqlik darajasini o'rganish asosida:

Gollandiya, Germaniya va Daniya seleksiyasiga mansub golshtin sigirlarning II laktatsiya davrida sut miqdori, bir yilda bir bosh buzoq olish bo'yicha tadqiqotlar «Siyob Shavkat Orzu» qoramolchilik fermasiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jalik vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 17-martdagi 02/23-179-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Gollandiya seleksiyasidagi mustahkam konstitutsiya tipida yillik sof foyda 12713,75 ming so'mni va rentabellik darajasi 40,7 foizni, nozik-zich tipida mos ravishda 11188,3 ming so'mni va 38,4 foizni, Germaniya seleksiyasidagi mustahkam tipida 11264,55 ming so'mni va 39,3 foizni, nozik-zich tipida esa mos ravishda 9113,85 ming so'mni va 35,8 foizni, Daniya seleksiyasidagi mustahkam tipida 9961,90 ming so'mni va 37,2 foizni, nozik-zich tipida 8777,30 ming so'mni va 35,4 foizni tashkil qilgan.

Turli seleksiyadagi golshtin sigirlarini konstitutsiya tipi bo'yicha II laktatsiya davrida sut miqdori, bir yilda bir bosh buzoq olish bo'yicha tadqiqotlar "PURE MILKY OQDARYO" qoramolchilikka ixtisoslashgan tajriba xo'jaligiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jalik vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 17-martdagi 02/23-179-sonli ma'lumotnomasi). Natijasida Gollandiya seleksiyasiga mansub golshtin sigirlarida yillik sof foyda 10152,257 ming so'm, rentabellik darajasi 32,5 foiz bo'lgan. Germaniya va Daniya seleksiyalariga mansub golshtin sigirlarida mos ravishda 8828,197; 7632,10 ming so'mga va 30,8; 28,5 foizni tashkil qilgan;

Golshtin sigirlarini tajriba guruhlari bo'yicha II laktatsiyadagi sut miqdori va bir yilda bir bosh buzoq olish tadqiqoti "PURE MILKY PRODUCTS" qoramolchilikka ixtisoslashgan xo'jaligida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jalik vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 17-martdagi 02/23-179-sonli ma'lumotnomasi). Gollandiya seleksiyasiga mansub golshtin sigirlarida yillik sof foyda 8478,633 ming so'm, rentabellik darajasi 29,1 foiz bo'lgan. Germaniya va Daniya seleksiyalariga mansub golshtin sigirlarida esa mos ravishda 6695,370; 6273,042 ming so'mga va 26,3; 25,3 foizni tashkil qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti aprobatsiya komissiyasi tomonidan 2021-2024-yillar davomida ko'rikdan o'tkazilib, ijobiy baholangan va ma'qullangan. Shuningdek, jami 5 ta, shu jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy maqolalar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shu jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, ishlab chiqarishga amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, adabiyotlar sharhi keltirilgan, tadqiqotlarning material va uslublari yoritilgan, shuningdek tadqiqotlarning obyekti va predmeti shakllantirilgan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Turli seleksiyaga mansub golshtin zotli qoramollarni qisqacha tasnifi”** hamda **“Golshtin zotini konstitutsiyasi va eksteryerini hamda tananing umumiy rivojlanish xususiyatlari”** deb nomlangan qismlarida mamlakatimiz va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, golshtin zotini iqlimlanish-moslashish va ayrim biologik xususiyatlari, mahsuldorlikka irsiy va paratipik omillarning ta'siriga doir ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Ko'plab mualliflarning ma'lumotlari umumlashtirilib, tegishli xulosalar qilingan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqotlarning manbai, uslublari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning ob'ekti, tadqiqot tasviri va uslublari yozilgan, ilmiy-tadqiqotlar 2021-2024 yillar davomida Samarqand viloyatining Tayloq tumanidagi “Siyob Shavkat Orzu”, Jomboy tumanidagi “PURE MILKY PRODUCTS” hamda Oqdaryo tumanidagi “PURE MILKY OQDARYO” fermer xo'jaliklari sharoitida bajarilgan.

Tadqiqot ob'ekti sifatida turli seleksiyadagi golshtin zotli sigirlar o'xshash belgilari bo'yicha kelib chiqish, zoti, yoshi, tirik vazni, konstitutsiya tiplarini hisobga olgan holda Gollandiya, Germaniya, Daniya seleksiyasiga mansub golshtin sigirlari tanlangan.

Dissertatsiyaning **«Xususiy tadqiqot natijalari»** deb nomlangan uchinchi bobida xususiy tadqiqotlar natijalari keltirilgan 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ko'rsatishicha barcha guruhlardagi sigirlarni oziqlantirish sharoiti bir xil bo'ldi.

Tajriba guruhidagi sigirlar is'temol qilgan ozuqalarining tarkibidagi ozuqa birligi, almashinuvchi energiya, quruq modda, hazmlanuvchi protein, xom klechatka, qand, osh tuzi, kalsiy, fosfor va karotinlar miqdori aniqlandi va natijalarini quyida keltirdik.

Ozuqa birligi bo'yicha I guruh mustahkam konstitutsiya tipi nozik-zichga nisbatan; II guruh nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tipi; III guruh nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tiplaridan tegishlicha, 558,1; 1467,3; 783,5; 1793,4 va 1186,1 o.b ga yoki 7,94; 20,9; 11,2; 25,5; 16,9 % ko'p bo'ldi.

1-jadval.

Tajriba guruhlaridagi sigirlarga sarf qilingan ozuqalar, (o'rtacha 1 boshga).

Ko'rsatkichlar	Guruhlar											
	I			II			III					
	nozik-zich		mustahkam	nozik-zich		mustahkam	nozik-zich		mustahkam			
kg	ozuqa birligi	kg	ozuqa birligi	kg	ozuqa birligi	kg	ozuqa birligi	kg	ozuqa birligi			
Bahorgi bug'doy samoni	1220	244	1067,5	213,5	1372,5	274,5	1220	244	1220	244	762,5	152,5
Beda pichani	915	402,6	610	268,4	366	161,04	457,5	201,3	610	268,4	457,5	201,3
Beda senaji	1220	427	1525	533,75	1220	427	1220	427	1220	427	1220	427
Nimqand lavlagi	4575	777,75	5185	881,45	3965	674,05	4270	725,9	3660	622,2	4270	725,9
Makka silosi	7930	1586	8540	1708	8540	1708	8540	1708	7930	1586	8540	1708
Bug'doy kepagi	610	457,5	457,5	343,125	305	228,75	610	457,5	305	228,75	610	457,5
Paxta shroiti	457,5	407,175	610	542,9	396,5	352,885	457,5	407,175	305	271,45	427	380,03
Arpa yormasi	457,5	526,125	610	701,5	366	420,9	305	350,75	305	350,75	305	350,75
Bug'doy yormasi	305	387,35	457,5	581,025	366	464,82	305	387,35	305	387,35	305	387,35
Makka yormasi	915	1216,95	915	1216,95	610	811,3	976	1298,08	610	811,3	762,5	1014,125
Go'sht-suyak uni	21,35	22,204	21,35	22,204	21,35	22,204	21,35	22,204	21,35	22,204	21,35	22,204
Diammoniy fosfat	30,5	X	30,5	X	30,5	X	30,5	X	30,5	X	30,5	X
Ozuqa birligi	X	6454,65	X	7012,804	X	5545,45	X	6229,26	X	5219,4	X	5826,66
Almashinuvchi energiya, MDj	75352,08	X	79986,56	X	64968,97	X	72204,48	X	61573,71	X	66913,95	X
Quruq modda, kg	7479,8	X	7757,5	X	6603,1	X	7122,9	X	6285,7	X	6525,6	X
Hazmlanuvchi protein, kg	708,2	X	781,7	X	586,1	X	659,2	X	554,1	X	629,5	X
Xom kletchatka, kg	1635,8	X	1613,6	X	1540,8	X	1557,4	X	1483,8	X	1384,9	X
Qand, kg	577,5	X	640,6	X	488,4	X	543,7	X	455,3	X	531,8	X
Osh tuzi, kg	47,27	X	49,71	X	39,95	X	44,83	X	37,51	X	42,39	X
kalsiy, kg	54,1	X	53,6	X	44,7	X	46,8	X	46,8	X	45,03	X
fosfor, kg	29,7	X	31,04	X	23,3	X	28,5	X	21,9	X	26,7	X
Karotin, g	261,3	X	275,5	X	250,7	X	255,03	X	248,9	X	252,5	X

Almashinuvchi energiya I guruh mustahkam I guruh nozik-zich; II guruh nozik-zich va mustahkam; III guruh nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tiplaridan 4634,5; 15017,6; 10175,7; 18412,8; 13072,6 MDj ga yoki 5,8; 18,7; 12,7; 23,02 16,3 % ga ortiq bo'ldi.

Dissertatsiyaning **“Turli seleksiyadagi golshtin sigirlarini tirik vazni, eksteryer va konstitutsiya xususiyatlarini o'rganish”** deb nomlangan uchinchi bobida Gollandiya, Germaniya, Daniya seleksiyasiga mansub II laktatsiyadagi nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tipidagi golshtin sigirlari o'rganildi.

2-jadvalning tahlili shundan dalolat berganki, Gollandiya seleksiyasiga mansub nozik-zich konstitutsiya tipidagi golshtin sigirlarini tana o'lcham ko'rsatkichlari, Germaniya va Daniya seleksiyasiga mansub golshtin sigirlariga nisbatan yuqori bo'lgan. Bunda Gollandiya seleksiyasiga mansub sigirlar ustuvorlik qilishib, I guruh nozik-zich o'z tengqurlari I guruh mustahkam, II guruh nozik-zich va mustahkam, III guruh nozik-zich hamda mustahkam konstitutsiya tipidagi sigirlarning yag'rin balandligi bo'yicha tegishli: 3,5 sm. yoki 2,4 foiz, 5,0 sm yoki 3,5 foiz, 8,4 sm. yoki 5,8 foiz, 13 sm. yoki 9,05 foiz, 15,4 sm. yoki 10,7 foiz; ko'krak kengligi bo'yicha 1,6 sm. yoki 3,1 foiz, 2,6 sm. yoki 5,03 foiz, 2,9 sm. yoki 5,6 foiz, 4,1 sm. yoki 7,9 foiz, 4,8 sm. yoki 9,3 foiz; tanani qiya uzunligi bo'yicha 1,3 sm. yoki 0,71 foiz, 2,5 sm. yoki 1,36 foiz, 2,9 sm. yoki 1,6 foiz, 19,6 sm. yoki 10,7 foiz 20,7 sm. yoki 11,3 foiz; poycha aylanasi bo'yicha 0,4 sm. yoki 1,81 foiz, 0,6 sm. yoki 2,7 foiz, 0,7 yoki 3,2 foiz, 3,2 sm. yoki 14,5 foiz, 2,9 sm. yoki 13,1 foiz ortda qoldirdi.

Qoramollarning tana o'lchamlarining absalyut miqdori ularning alohida tana qismlarining qay darajada rivojlanganligini ko'rsatsada, lekin ularning alohida tana qismlarini mutanosib rivojlanganligini harakterlab bera olmaydi. Shuning uchun tadqiqotlarimizda tajribadagi qoramollarning tana qismlari asosida tana indekslarini hisoblab chiqdik. Bu ularning konstitutsional xususiyatlarini ochib berdi. 3-jadval tahlilining ko'rsatishicha, turli seleksiyaga mansub golshtin zotli sigirlarda uzunoyoqlilik indeksi bo'yicha I guruh mustahkam konstitutsiya tipli tajriba guruhi o'z tengqurlari II guruh mustahkam; III guruh mustahkam konstitutsiya tiplaridan 0,9; 2,9 % ga, I guruh nozik-zich konstitutsiya tipi II va III guruh nozik-zich konstitutsiya tipidan 0,9; 3,2 % ustuvorlik qildi. Ko'krakdorlik hamda zichlilik bo'yicha III- guruh nozik-zich konstitutsiya tipidagi qolgan I, III guruh nozik-zich konstitutsiya tipidan 3,0; 6,8; 0,8; 10,0, III guruh mustahkam, I, II guruh mustahkam konstitutsiya tipidan 1,8; 6,2; 9,0; 9,7 % ga ustunlikka erishdi. Suyakdorlik bo'yicha II guruh nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tipi o'z tengqurlari I, III guruh nozik-zich, mustahkam konstitutsiya tiplaridan quyidagicha: 0,1; 1,0; 0,7 va 1,1 % yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Shuni ta'kidlash lozimki, olingan natijalarning tahlili sigirlarning turli seleksiyaga mansub nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tipiga ega golshtin sigirlar yaxshi rivojlangan ko'krak ko'rsatkichlariga va mutanosib tana tuzilishiga ega bo'lganligini, mahsuldorlik yo'nalishi bo'yicha esa sutbop ekanligini ko'rsatdi.

2-jadval

Tajriba guruhidagi golshtin sigirlarining tana o'lchamlari (sm), (n=20).

Tana o'lchamlari	Guruhlar											
	I				II				III			
	nozik-zich		mustahkam		nozik-zich		mustahkam		nozik-zich		mustahkam	
	X±Sx	C v,%	X±Sx	C v,%	X±Sx	C v,%	X±Sx	C v,%	X±Sx	C v,%	X±Sx	C v,%
Yag'rin balandligi, sm	143,7±1,0***	2,07	140,2±0,95***	2,05	138,7±0,97	2,1	135,6±1,0	2,2	130,7±0,94	2,1	128,3±0,9	2,07
Ko'krak chuqurligi, sm	72,1±1,23	5,12	71,1±1,16	5,53	70,9±1,17	4,97	69,9±1,29	4,9	69,8±1,12	4,82	68,7±1,1	4,77
Ko'krak kengligi, sm	51,7±1,28	7,45	50,1±1,33	7,99	49,1±1,23	7,53	48,8±1,23	7,57	47,6±1,2	7,59	46,9±1,17	7,49
Ko'krak aylanasi, sm	220,5±2,58***	3,51	205,6±2,63*	3,84	200,8±2,61	3,9	202,6±2,41	3,57	198,1±2,58	3,91	198,3±2,3	3,48
Tananing qiya uzunligi, sm	183,1±1,67***	2,73	181,8±1,61***	2,65	180,6±1,69	2,81	180,2±1,55	2,59	163,5±1,53	2,8	162,4±1,45	2,68
Dum'aza balandligi, sm	149,1±1,03***	2,07	145,4±1,02***	2,1	143,8±1,09	2,2	141,2±1,1	2,3	135,9±1,06	2,3	133,6±1,07	2,4
Orqa do'ng suyaklar kengligi, sm	55,6±1,18***	6,38	55,1±1,17***	6,55	54,3±1,22	6,38	53,1±1,16	6,76	49,6±1,53	9,28	48,8±1,37	8,41
Poycha aylanasi, sm	22,1±0,29***	3,93	21,7±0,39***	6,21	21,5±0,39	5,5	21,4±0,44	5,45	18,9±0,25	3,97	19,2±0,35	5,42

Izoh: *P > 0,95; **P > 0,99; ***P > 0,999

Tajriba guruhidagi sigirlarning tana tuzilish indekslari (%), (n=20).

Tana tuzilish indekslari	Guruhlar					
	I		II		III	
	nozik-zich	mustahkam	nozik-zich	mustahkam	nozik-zich	mustahkam
	II-Laktatsiya					
Uzunoyoqlilik	49,8	49,3	48,9	48,4	46,6	46,4
Cho‘zinchoqlik	127,4	129,6	130,2	132,9	125,1	126,6
Ko‘krakdorlik	71,7	70,4	69,2	69,8	68,2	68,3
Tos-ko‘krak	92,9	90,9	89,1	89,9	95,9	96,1
Zichlilik	120,4	113,1	90,4	91,9	121,2	122,1
Suyakdorlik	15,4	15,3	15,5	15,8	14,5	14,9

Dissertatsiyaning “**Turli seleksiyadagi golshtin zotli sigirlarning klinik va fiziologik xususiyatlarini konstitutsiya tipiga bog‘liqligi**” deb nomlangan IV bobida o‘z rivojlanish jarayonida qishloq xo‘jalik hayvonlari organizmi o‘zining zoti, yoshi, fiziologik holatiga bog‘liq holda va atrof muhit ta‘siri natijasida turli - tuman o‘zgarishlari yoritilgan.

Turli seleksiyadagi golshtin zotli sigirlar organizmini moslashish xususiyatini baholash maqsadida biz tajriba sigirlarining klinik va fiziologik ko‘rsatkichlari: nafas olish, yurak urish va tana haroratini o‘lchadik. Bu ko‘rsatkichlar organizmning tabiiy rezistentligini, modda almashish holati, fiziologik ko‘rsatkichi va mahsuldorligini aniqlashda muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning “**Sigirlar yelinining morfofunktsional xususiyatlarini konstitutsiya tipiga bog‘liqligi**” deb nomlangan V bobida ushbu 4-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, golshtin zotining konstitutsiya tipi bo‘yicha yelin o‘lchamlari turli xil bo‘lganini ko‘rsatdi. Tajriba tadqiqotlarda eng yuqori ko‘rsatkichlar, I guruhga mansub nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tipidagi sigirlarida kuzatildi va ularning yelin aylanasi II laktatsiyada, o‘z tenqurlari II va III tajriba guruhidagi sigirlardan shunga mutanosib ravishda: nozik-zich tipi I guruh II va III guruhlardan 1,3 sm yoki 1,07 foiz, 2,3 sm yoki 1,89 foiz, I guruh mustahkam konstitutsiya tipi II va III guruhdan 0,8 sm. yoki 0,66 foiz, 2,1 sm yoki 1,74 foiz, yelinning shartli hajmi tegishlicha: 105,1 sm³ yoki 2,9 foiz, 212,0 sm³ yoki 5,8 foiz, mustahkam tipi bo‘yicha 89,7 sm³ yoki 2,5 foiz, 210,7 sm³ yoki 5,9 foiz; sut berish tezligi 0,39 kg/ daqiqa yoki 17,2 foiz, 0,44 kg/ daqiqa yoki 19,5 foiz, mustahkam konstitutsiya tipi 0,16 kg/ daqiqa yoki 6,9 foiz, 0,55 kg/daqiqa yoki 23,8 foiz yuqori bo‘ldi. Yelin indekslari bo‘yicha I guruh nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tipidagi sigirlar II va III guruh nozik-zich hamda mustahkam konstitutsiya tipidagi sigirlardan 0,4 yoki 0,9 foiz; 0,8 yoki 1,8; 0,5 yoki 1,1 foiz va 0,8 yoki 1,7 foizga ustunlik qildi.

4-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlar yelinning morfofunksional ko'rsatkichlari ($X \pm Sx$; Cv , %), (n=20).

Ko'rsatkichlar	Guruhlar											
	I				II				III			
	nozik-zich		mustahkam		nozik-zich		mustahkam		nozik-zich		mustahkam	
$X \pm Sx$	Cv , %	$X \pm Sx$	Cv , %	$X \pm Sx$	Cv , %	$X \pm Sx$	Cv , %	$X \pm Sx$	Cv , %	$X \pm Sx$	Cv , %	
Yelin aylanasi, sm	121,7±1,16	3,02	120,9±0,88	2,3	120,4±0,79	2,1	120,1±0,73	2,29	119,4±0,81	2,14	118,8±0,77	2,05
Yelin uzunligi, sm	37,7±0,4***	3,4	37,1±0,3***	2,9	36,3±0,38	3,3	35,8±0,36	3,1	35,2±0,31	2,8	34,7±0,34	3,07
Yelin eni, sm	31,8±0,45**	4,5	31,4±0,5**	5,1	30,8±0,44	4,6	30,3±0,4	4,2	29,8±0,47	4,9	29,6±0,38	4,1
Yelinning oldingi qismi chuqurligi, sm	28,5±0,47	5,2	28,1±0,48	4,4	27,9±0,47	5,3	27,7±0,46	5,3	27,5±0,4	4,4	27,1±0,5	5,8
Yelinning orqa qismi chuqurligi, sm	31,3±0,46*	4,7	31,1±0,42*	4,3	30,8±0,44	4,6	30,4±0,47	4,8	29,9±0,46	4,8	29,6±0,42	4,5
Yelinning shartli hajmi, sm ³	3638,8	X	3578,6	X	3533,7	X	3488,9	X	3426,8	X	3367,9	X
Orqa so'rg'ichlar uzunligi, sm	8,33±0,06	2,3	8,31±0,046	1,7	8,29±0,04	1,5	8,27±0,063	2,4	8,24±0,033	1,3	8,21±0,03	1,14
Oldingi so'rg'ichlar uzunligi, sm	7,78±0,043***	1,76	7,74±0,05***	2,0	7,67±0,048	1,96	7,63±0,04	1,6	7,51±0,05	2,01	7,48±0,04	1,7
So'rg'ichlar diametri, sm	2,31±0,014**	1,9	2,29±0,015**	2,1	2,3±0,018	2,4	2,28±0,014	1,9	2,26±0,015	2,0	2,23±0,011	1,6
Sut berish tezligi, kg/daqqa	2,26±0,049***	6,80	2,31±0,043***	5,8	1,87±0,03	4,7	2,15±0,047	6,9	1,82±0,023	3,9	1,76±0,02	3,4
Yelin indeksi, %	44,3±0,1	0,72	44,6±0,08	0,6	43,9±0,09	0,7	44,1±0,09	0,63	43,5±0,09	0,65	43,8±0,09	0,67

Izoh: * $P > 0,95$ ** $P > 0,99$ *** $P > 0,999$.

Dissertatsiyaning **“Tajriba guruhidagi sigirlarning sutdorlik koeffitsiyentini o‘rganish”** bo‘limida tajriba guruhidagi turli seleksiyaga mansub sog‘in sigirlarning kelib chiqishi, yoshi va oziqlantirish sharoitidan qat‘iy nazar, ulardan foydalanish unumdorligini tahlil qilishda, har 100 kg. tirik vaznga to‘g‘ri keladigan sut miqdorini o‘rganish amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham biz tajriba guruhlaridagi sigirlarning har 100 kg tirik vazni hisobiga to‘g‘ri keladigan sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini hisoblab ma‘lumotlarni quyidagi 5-jadvalga keltirdik. Suldorlik koeffitsiyenti quyidagicha har 100 kg tirik vaznga ishlab chiqarilgan sut I guruhdagi nozik-zich konstitutsiya tipi 1208,1 kg suldorlik koeffitsiyentiga ega bo‘lib, II guruh nozik-zich konstitutsiya tipidan 152,8 kg ($P>0,999$), 12,6 % ni III guruh nozik-zich konstitutsiya tipidan 149,9 kg ($P>0,999$), 12,4 % ga ko‘p sut bergan. Ushbu ko‘rsatkich bilan I guruhdagi mustahkam konstitutsiya tipida har 100 kg tirik vaznga ishlab chiqarilgan sut miqdori 1298,7 kg ni tashkil etib, II guruh mustahkam konstitutsiya tipidan 93,2 kg ($P>0,99$), 7,2 % ga III guruh mustahkam konstitutsiya tipidan esa 157,4 kg ($P>0,999$), 12,1% ga ko‘proq bo‘lganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi, ming so‘m, (o‘rtacha 1 boshga)”** qismida chorvachilik sohalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar yakunida iqtisodiy ko‘rsatkichlar ifodalandi. Ma‘lumki, bizning ilmiy tadqiqotlarimizda iqtisodiy samaradorlikni konstitutsiya tiplariga qarab, laktatsiya kesimida har bir guruh uchun hisoblendi. Shuni e‘tiborga olib, 6-jadvalda II laktatsiyadagi turli seleksiyadagi golshtin zotli sigirlarning nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tiplariga qarab iqtisodiy samaradorligiga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

